

**ISTE'MOLDAGI DARSLIKLAR BELGILANGAN ME'YORLAR TALABLARGA MOSMI? (7-SINF ONA TILI DARSЛИGI MISOLIDA)**

**Toshtemirova Sevinchbonu Jamshit qizi**

**Amirqulova Sevinch Akbar qizi**

*SamDUKF Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti*

*3- bosqich talabalari +998938322106*

*sevinchbonutoshtemirova@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lif davlat ta'lif standartining asosiy prinsiplari va undagi ta'lif mazmunini aks ettiruvchi normativ hujjalari: a) o'quv rejalar, b) o'quv dasturlari, c) darsliklar va ularning tuzilishiga qo'yilgan talablar o'rganib chiqilib, 7-sinf ona tili (Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov Ona tili. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Yangi nashri. Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022. – 240 b.) darsligining mazmuniy tuzilishidagi yutuq va kamchiliklari, muammoli tomonlari ochiqlanishga va ushbu maqola orqali ularga yechim hamda darslik uchun qo'shimcha fikrlar taklif qilishga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar:** DTS (davlat ta'lif standartlari), darslik, o'quv predmet, o'quv dastur, mashq, topshiriq.

**Abstract:** In this article, the main principles of the state standard of general secondary education and the regulatory documents reflecting the content of education in it: a) curricula, b) educational programs, c) textbooks and the requirements for their structure are studied. 7th grade "mother tongue" (Iroda Azimova, Klarakhan Mavlonova, Sadulla Kuronov, Shakir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddikov Mother tongue. Textbook for 7th grade of general secondary schools. New edition. Tashkent: Republican Education Center , 2022. - 240 p.) in the content structure of the textbook, it was tried to clarify the achievements and shortcomings, the problematic aspects and to offer solutions to them and additional ideas for the textbook through this article.

**Key words:** DTS (state educational standards), textbook, subject, curriculum, exercise, assignment, audio text, video, 6th grade mother tongue.

Umumiy o'rta ta'lif standarti 1998 yilda qabul qilingan edi, bu davrdan keyingi o'zgarishlar va jahon ta'lif standartlari tajribalari asosida 2017-yil yangi standartlar ishlab chiqildi. 2017-yil 6-apreldagi 187-sod qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifining davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Davlat ta'lif standarti. Ta'lif mazmunining rivojlanishida ko'zga tashlanayotgan zamonaviy tendensiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida yagona qoidalar va talablar o'rnatalishi) hisoblanadi.

Davlat ta'lif standarti:

1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2) o`quv fani bo'yicha yakuniy ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlari tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagilardan iboratdir:

1. Ta'limning yangi yoki aniqlashtirilgan maqsadlari, fanning o'rganish ob'ektlari va asosiy mazmunli yo'nalishlari ko'zda tutiladigan o'quv fanining umumiy ta'rifi.

2. O'quv fanining mazmuni, tayanch (invariant) darajasini tasvirlash.

3. Ta'limning majburiy natijalarini ifodalash, ya'ni o'quvchilarning o'quv tayyorgarliklari zarur bo'lgan minimal darajasiga talablar.

4. Bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiluvchi talablar, bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining o'lchamidir, ya'ni, tekshirish ishlari, testlar va alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o'quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqida fikr yuritish mumkin bo'ldi.

O'quv rejası - davlat hujjatidir. Unga barcha umumta'lim maktablari so'zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o'quv rejası hisoblanib, u xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alovida aniq bir fanning o'quv rejası - shu fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatlaridir. O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi. O'quv tarbiya ishining maqsadi, o'quvchilarga aniq ilmiy bilim berish, oлган bilimlarini ko'nikmaga aylantirib, uni hayotga qo'llay olishga o'rgatish.

Darslikni hammamiz bilamiz. Undan uzoq yillar davomida foydalananib kelganmiz, ayrimlarga u eng yaqin do'st bo'lib qolgan. Xuddi shu biz biladigan darslik qanday talablar asosida yaratiladi?

Darslik. Darslik o'quv jarayonining asosi. O'quvchining uydagi muallimi, yordamchisi. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi.

1. Darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sind o'quvchilarining yosh xususiyatiga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g'oyalari tizimli va izchil bo'lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi lozim.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.

4. Darslikda mavzu sodda ravon tilda yozilishi hamda tegishli qoida va ta'riflar berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi rasmlar va bezatilishi o'quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo'lishi kerak.

5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

O'quv predmetlari. Har bir o'quv predmetida o'ziga oid fanning umumiy asoslari beriladi. Fan va o'quv predmeti bir-biridan quyidagi belgilariga ko'ra farq qiladi:

Birinchidan, fan hajm va mazmun jihatidan keng bo'lib, unda shu fanga oid g'oyalar, qarashlar, bilimlar, tushunchalarning barchasi o'z aksini topadi. O'quv predmeti hajmi nisbatan tor bo'lib, unda bolalarning hayotiy tajribalari, real imkoniyatlariga mos keladigan bilimlarni o'rgatish ko'zda tutiladi.

Ikkinchidan, fan hamma uchun yosh-u qari, o'zbek-u qozoqqa bir xil xizmat qiladi. O'quv predmetlari esa faqat yoshlarga mo'ljallab tuziladi.

Uchinchidan, fan va o'quv predmetining faqat o'zigagina xos vositalari mavjud.

To'rtinchidan, fan o'zini-o'zi rivojlantiradi. O'quv predmetlari esa yoshlarni ma'lumotli qiladi, rivojlantiradi, tarbiyalaydi. Lekin farqlariga qaramasdan ular o'zaro uzviy bog'langan. Fan rivojlangan sari o'quv predmetlari sayqallahish, takomillashish boradi. (Hasanboyev. J, To'raqulov. X, Haydarov. M, Hasanboyeva O. Pedagogik fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.)

O'quvchilarning akademik saloyihatini o'stirishga bo'lgan say-harakatlar va maktab ta'lif standarti ko'pgina maktablarda o'quvchilarning bilim darajasi va o'rganish tajribalarini oshirgan. O'rnatilgan qat'iy ta'lif dasturlariga qaramay o'qituvchilar har-bir o'quvchining o'zlashtirish imkoniyatini o'rganib borishi kerak. (Umumiylar talim maktablarining 7-sinfi uchun Ona tilidan o'qituvchi kitobi. Yangi nashr. Toshkent, 2020. 247 b.)

Yuqoridagi qayd etilgan fikrlarga asoslangan holda, 7-sinf ona tili (Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov Ona tili. Umumiylar ta'lif maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Yangi nashri. Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022. – 240 b.) darsligining ushbu talablarga nechog'liq mos yoki zid ekanligini ko'rib chiqamiz.

Mavzu nomlariga ham alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, grammatic nomlar emas, balki kundalik hayotda global mavzular qamrab olinib, uning ichida grammatic mavzular berib ketilgan. "Ijtimoiy tarmoqlar", "Zamonamiz qahramonlari", "Turon yo'llbarsi", "Kelajak kasblari", "Mualliflik huquqi" va shu kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Bu mavzular tanlashi maqsadga muvofiq, o'quvchi hayotiga kerakli ma'lumotlarni olishi mumkin. Eski darsliklardan tubdan farq qiluvchi yangi yondashuvlarga asoslangan darsliklarimiz ko'proq matnlar ustida ishlashga qaratilgan.

Darslikning yutuqlaridan biri darslikda rang-tasvir, grafika bo'yicha alohida ishlangan, rasmlar o'quvchining yoshiga xos va mos tanlangan. Bu o'quvchida zerikish tug'dirmay, aksincha fanga bo'lgan qiziqishini oshirishi mumkin. Faqat bir jihat e'tiborsiz qolgan, ya'ni tinglab tushunish kompitensiyasini oshirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarda audio matnlar eshitirilishi kerak. Bu audiolar ko'pchiligidagi QR code berilgan.



2. Quyida berilgan QR-kod orqali Oly Majlis Qonunchilik palatasining yalpi majlisini kuzating. Oly Majlis binosining ko'rinishi hamda majlisning borish jarayoni haqida tavsifliy matn yaratting.



[1,198]

Ammo ayrim audio matnlar uchun berilmagan. Masalan, “Sun’iy intellekt” audiomatnini tinglang va savollarga javob bering. [1,10]

Yana bir muommoli tomoni shundaki, mashq va topshiriqlarda belgi qo’yilib, raqam qo’yilmaganligi. “Sun’iy intellekt” audiomatnini tinglang va savollarga javob bering. [1,10]

Bolaning yoshidan kelib chiqadigan bo’lsak, chalkashmovchiliklarni keltirishga sabab bo’ladi. Avvalgi darsliklarda mavjud bo’lgan birinchi mavzuning birinchi mashqi yoki topshirig’i 1 tartib raqami bilan belgilanib, keying mavzularda ham shu tartib davom etirilishi mavjud edi. Xuddi shunday oxirgi mavuning oxirgi mashq yoki topshirig’i eng oxirgi raqam masalan, 250-mashq bilan tugashi anchayin ishni osonlashtirgan bo’lar edi. Yana bir jihatayim o’quv topshiriqlari hech qanday belgisiz berilgan. Na mashq na topshiriq na savol ekanligini anglatuvchi belgi ko’rsatilmagan, Masalan, Ijtimoiy tarmoqlar mavzusida shu holatga duch kelamiz:

7. Matnda qo’llangan tinish belgilariga e’tibor bering. Tinish belgi ishtirok etgan gaplarga bittadan namuna yozing. Ayting-chi, ko’pnuqta nima uchun qo’llangan? [1,10]

Darslikda lug’at bilan ishlash bo'yicha topshiriqlar kam sonni tashkil qiladi. Mavzularda yangi so’zlar lug’ati qismi mavjud emas. Faqatgina darslik oxirida lug’at berib o’tilgan. Ammo barcha yangi so’zlarni qamrab olmagan. Masalan, fakt, izn, mot qilish kabi so’zlarning yozilishi va tallafuzida farqlarni ko’rish mumkin. [1,9]

Darslikda bir qancha o’rinlarda mashq topshiriq sifatida, aksincha topshiriq mashq sifatida berib o’tilgan. Masalan, Ijtimoiy tarmoqlar mavzusida topshiriq berilgan mashq sifatida berilgan:

## **2. Berilgan diagramma bilan tanishing va unga sarlavha qo’ying. Matn ko’rinishida yozing. [1,6]**



13. Ijtimoiy tarmoqlardan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin? Bu boradagi qoidalarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozing. Bunda birinchidan, ikkinchidan kabi so’zlardan foydalaning.

14. Yozgan matningizni sinfdoshingiz bilan almashtiring. Uning yozma ishi bilan tanishing hamda unga qisqacha izoh yozing. [1,13]

13 va 14-mashq sifatida berilgan, aslida topshiriq sifatida berilishi kerak edi.

Bundan tashqari darslikda to’rt kompetensianing barchasi birdek qo’llanilmagan. Eng ko’p yozish, undan keyin gapirish, o’qib tushunish, eng kam miqdorda tinglab tushunish

ko'nikmalariga doir mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Yozish o'quvchida fanga nisbatan qiziqishni so'ndiradi. Shunday ekan, to'rtala ko'nikmalarni bir xil rivojlantirivchi topshiriqlar berilishi kerak. Bundan tashqari, ko'rib tushunish ko'nikmasidan ham salmoqli foydalanish lozim. Masalan, Ijtimoiy tarmoqlar mavzusida bir insonning hayoti shu muammo tufayli tugashi yoki taqiqlangan saytlardan foydalananganligi uchun jazolanishi kabi real voqealarni vediotasvir orqali ko'rsatib berish yanada maqsadga muvofiq bo'lar edi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov Ona tili. Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Yangi nashri. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 240 b.) 1
2. Umumiyo'rta talim maktablarining 7-sinfi uchun Ona tilidan oqituvchi kitobi. Yangi nashr. Toshkent, 2022. 247 b.
3. Umumiyo'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari. -T, 2017<sup>2</sup>
4. Umumiyo'rta ta'lim maktablari to'g'risida Nizom. –T., 2017<sup>3</sup>
5. Hasanboyev. J, To'raqulov. X, Haydarov. M, Hasanboyeva O. Pedagogik fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
7. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
8. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. Интернаука, (22-3), 64-66.
9. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. Интернаука, (21-3), 74-75.
10. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 17, 31-33.
11. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.
12. Мамаджонов, Р. (2023). "VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O 'RNI VA ROLI" MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5).
13. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.

14. Siddikov, B. S. (2023). MORAL VIEWS OF HUSSAIN VOIZ KOSHIFI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 39-42.

MAZMUNI, T. M. A. J. V. Sh. N. Mexmonaliyev–Farg ‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti SS Evatov–Farg ‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi OA Tursunov–Farg ‘ona politexnika instituti akademik litsey o‘quvchisi. FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 275.